

## XAYRIDDIN SULTON IJODINING O`RGANILISHI

**Abdullayeva Gulmira**

*Jizzax davlat pedagogika universiteti tayanch doktoranti*

**ANNOTATSIYA:** Ushbu maqolada Xayriddin Sulton ijodining o`rganilishiga oid dissertatsiya, maqola va tezislar o`rganilib tahlil qilindi. Tahlilda ikki adabiyotshunos olimi: Karimova Yulduz va Sapoyeva Shohsanamlarning dissertatsiyasi asosida adib ijodidagi hikoyalari va “Saodat sohili” qissasi o`rganib chiqildi.

**KALIT SO`ZLAR:** Xayriddin Sulton ijodi, qissa, hikoya, yozuvchi uslubi, yozuvchining so`z qo`llash mahorati, tragik pafos, asar tili.

Xayriddin Sulton ijodi 70-yillarda boshlangan bo`lsa, shu davr mobaynida o`zining “Ko`ngil ozodadur”, “Yozning yolg`iz yodgori”, “Saodat sohili”, “Yo, Jamshid”, “Qog`oz gullar” kabi hikoyalari bilan o`quvchi ko`nglini qozondi, oraliq yigirma yillik tanaffusdan so`ng esa “Odamlardan tinglab hikoya” hikoyalar to`plami, “Haqiqat jamoli” publitsistik maqolalar to`plami, “Ishonch telefoni” qissalari bilan adabiyot ixlosmandlarini yana xushnud qildi. Yaratgan asarlari adabiyotning yorqin vakillari tomonidan iliq fikrlar bilan kutib olindi.

2006-yil adabiyotshunos Sopiyeva Shohsanam “Xayriddin Sultonning hikoyanavislik mahorati” nomzodlik dissertatsiyasida adib hikoyalarini mufassal tahlil qilgan. Xususan, yozuvchining obraz, kompozitsiya, syujet, konflikt yaratish mahorati va uslubini o`rganib, hikoyalari asosida ularni ochib bergan.

Dissertatsiyaning “Yozuvchining qahramon obrazini yaratish san`ati” faslida yozuvchi ijodida qariyalar obraziga ko`p murojaat qilganligini ta`kidlab, “Chollar palatasi”, “Chayladagi to`rt erkak”, “Nomus”, “Yo, Jamshid” kabi hikoyalarini tahlilga tortgan. Masalan, “Nomus” hikoyasida qahramonning tashqi qiyofasi, ya`ni portretini chizishda yozuvchining qahramonlar portretini bir boshdan mukammal tasvirlamaydi. Aksincha, yo`l-yo`lakay matn ichida o`rni kelganda biror vaziyatdagi holatini ifodalay turib chizib ketishini aytgan. Bunda chol va uning do`sti Nishonxo`jalarning portreti orqali xarakterini ochib berganligini ta`kidlagan. Adabiyotshunos ushbu asar qahramonlarini Shukur Xolmirzayevning “Tabassum” hikoyasidagi Jalil ota va Mo`min munosabatlari bilan taqqoslagan. “Ikkala hikoyada ham qariyalar o`rtasidagi kelishmovchilik ularning yoshlik vaqtida ro`y bergan. Chol Nishonxo`jani hiyla bilan urushdan qolgani uchun yomon ko`rsa, Jalil ota Mo`minning nayrangbozligi – o`zini qahramon qilib ko`rsatgani uchun yomon ko`radi, Ikkala qariya ham, oradan necha zamonlar o`tib ketsa-da, raqiblarining kirdikorini birovga aytmaydi. Chol Nishonxo`janing kulgisiga qolishdan

nomus qilsa, Jalil ota Mo`min bilan quda bo`lishdan ko`ra o`limni afzal biladi. Har ikkala hikoya qahramonlarida ham g`urur, or-nomus ustun keladi”<sup>20</sup>.

“Kompozitsiya yaratishdagi o`ziga xosliklar” faslida esa adabiy syujet va kompozitsiya unsurlari – ekspozitsiya, tugun, yechim, konflikt, portret, peyzaj, detal kabilarni “Uch tup xurmo”, “Qog`oz gullar”, “Yo`qchilik va to`qchilik”, “Onamning yurti” hikoyalari misolida o`rgangan. Jumladan, “Uch tup xurmo” hikoyasi tahlili mobaynida asosiy obrazning xarakteridagi o`zgaruvchanlikni kompozitsion birliklar bilan ochib berganligi va bu bilan ijodkorning N.Gogol, A.Chexov, A.Qahhor kabi hikoya ustalari ijodidan bahramandligini bildirib o`tgan, shu bilan birga hikoyada Fayzullani hikoyachi-qahramon sifatida ko`rsatib kompozitsiyani yaratgan bo`lsa, “Qog`oz gullar” hikoyasining kompozitsiyasi qahramonning monolog-istig`fori asosiga qurilganligini keltirib o`tgan.

Sayyor syujet, ya`ni yozuvchi boshqa bir ijodkorning asaridan ta`sirlanib syujet yaratishiga misollar keltirgan Xayriddin Sulton o`z ijodida Bobur shaxsiyatiga ko`p murojaat qilgan. Shuning uchun ham Sh. Sopiyeva “Syujet, konflikt va kolliziya yaratish mahorati” nomli faslida adibning “Nuqta”, “Oy botgan pallada” hikoyalarni “Boburnoma”ni o`qib yozganini va V.Rasputinning “Mariyaga pul kerak” qissasidan ta`sirlanib “Yo, Jamshid!” hikoyasini yozganini bildirib o`tgan.

Yozuvchining voqelikni aks ettirishda qahramonlar nutqini individuallashtirish uchun barqaror birikmalardan unumli foydalanganligini ta`kidlab shunday degan: “X.Sultonning til masalasida talabchanligi uning har bir jumla va so`zga nisbatan o`ta jiddiy, ehtiyotkorlik bilan yondashishida ko`rinadi. Yozuvchi hikoyalarda ortiqcha tafsilotlar uchramasligi, ularning uzundan uzoq izohlar, jimjimadorlik va balandparvozlikdan xoliligi, jumalarning ixcham, aniq va ravon tuzilgani, sodda bayon orqali teran ma`no, purhikmat fikrlar ifodalanishi uning badiiy tildan mahurat bilan foydalangani tufaylidir. Adib hikoyalarning tili har birining mavzusi (oilaviy-maishiy, ijtimoiy axloqiy, tarixiy va hokazo), ohangi(lirik, tragik yoki hajviy ruhda ekani), qahramonlar xarakteriga mos ravishda alohida tovlanib turadi”<sup>21</sup>

Adabiyotshunos Shohsanam Sopiyeva insonni inson sifatida, xom sut emgan osiy banda sifatida ko`rsatish Xayriddin Sulton ijodiga xos ekanligini alohida ta`kidlaydi.

2024-yil adabiyotshunos Yulduz Karimovanning filologiya fanlari doktori(DSc)likni olish uchun qilgan “O`zbek adabiyotida Bobur obrazi: tadrij va talqin” nomli dissertatsiyasining ikki faslini Xayriddin Sultonning “Saodat sohili” asariga bagishlagan

<sup>20</sup> Shohsanam Sapoyeva. “Xayriddin Sultonning hikoyanavislik mahorati”. Dissertatsiya. - Toshkent 2006. B-68

<sup>21</sup> Shohsanam Sapoyeva. “Xayriddin Sultonning hikoyanavislik mahorati”. Dissertatsiya. - Toshkent 2006. B-70

va unda tragik pafos, asar badiiyligi va obraz haqqoniyligi muammosini atroflicha tahlil qilgan.

Asar badiiyligini ochib beruvchi soʻz va iboralarni alohida ajratib Bobur Mirzo obrazining ruhiy holatini - asardagi tragik pafosni tahlilga tortgan. Qissadagi peyzajlardan, yaʼni qahramon ruhiyati va tabiat tasviridagi uygʻunlikni yaratishdagi ijodkor mahoratini koʻrsatib beruvchi oʻrinlardan ham talaygina misollar keltirgan. "...Bobur botib borayotgan quyoshdan koʻz uzmay oʻtirar edi; Ufq quyoshni oʻz bagʻriga dafn etdi; Bulutlarning koʻksi qonga toʻldi. Olisdagi togʻlar unsiz faryod chekdi; Besar oy koʻkda maʼyus termuladi. Bobur Mirzo ruhiyatidan oʻkazib berilgan bu peyzaj bir tarafdin oʻz polifunksionalligi bilan Xayriddin Sultonning insoniy ruhiyatini tabiat fonida mohirlik bilan suratlantira oladigan adib ekanligini koʻrsatsa, ikkinchi tomondan oʻquvchi fojeiylilik bagʻridagi bunday ulugʻvor tasvirdan taʼsirlanadi" 1

Shu bilan birga adabiyotshunos olim Yulduz Karimova qahramonning tragik portret yaratishda: "besh kunlik gunohkor umr", "dard bor-darmon yoʻq", "inon ixtiyordan xalos", "taxtga qaram, tojga qul", "Allohgagina qul emas" kabi birikmalarning asardagi oʻrni haqida toʻxtalib oʻtib har biriga izoh bergan. Masalan, "besh kunlik gunohkor umr" iborasi yozuvchining shunchaki badiiy topilmasi emas, balki bu ibora Bobur Mirzoning hayotiy qarashlari, umr falsafasining talqinidir". 1

Muallif asar tahlilida tragik pafosni ochib berar ekan adabiyotshunos Suvon Melining tragizmni uch turga: 1) qahramon tragizmi; 2) muallif tragizmi; 3) davr tragizmi kabi turlarga boʻlib oʻrganganiga qoʻshimcha ravishda tragik idrok ham "Saodat sohili" qissasidagi pafosni ochib berishda muhim ahamiyatga ega ekanligini taʼkidlab asar syujetini shu yoʻnalishda tadqiq qilgan. Qissadagi Bobur Mirzo obrazini muvaffaqiyatini taʼminlagan jihat qahramon umrining oxirgi yillari – oʻlimini qalamga olinganligi tragik pafosni ajoyib topilmaligini aytib oʻtadi va bunga "saltanat koʻyida orzu-umidlari bilan oʻz yurtiga sigʻmagan, taqdir shamolida "moli vofir, eli kofir" yurtlarga kelib qolib Afgʻon, Hind va Bangola oʻlkalarining mutlaq hukmdori boʻlib taxt topgan, ammo bir umr Vatan sogʻinchi, yurt hasratining zil-zambil yukini koʻtarib oʻtishga oʻtishga mahkum Bobur Mirzo qismati uning eng katta fojiasi edi. "Saodat sohili"da Xayriddin Sulton anglagan va anglatishga harakat qilgan tragik mohiyat aslida ham shu." 22

Zamonaviy oʻzbek nasriga olib kirilgan tush motivi qahramon hayotini har tomonlama yoritish, obrazni psixologik teran talqin etish maqsadida qoʻllanadi. "Saodat sohili" qissasida ham asar badiiy konsepsiyasini butunligicha oʻzida aks ettirgan tush sahnasi mavjud. Bu parchani dissertant quyidagicha yoritib beradi: "Qoʻlda aso muz uzra shitob ila yelib borayotgan Bobur Mirzoning bu tushi uning ona vataniga qilich, zoʻr-u zar bilan

<sup>22</sup> Yulduz Karimova "Oʻzbek adabiyotida Bobur obrazi: tadrij va talqin". Dissertatsiya. - Toshkent 2006. B-227

emas, balki shohlik, saltanat dag`dag`alaridan xalos bo`lib qalandar libosida qaytmoqlik orzusiga ishoraligi, ammo oyoq ostidagi muzlarning omonatligi, dengiz va yo`lning bu ilinjning imkonsizligini, zero vatandan oyog`i uzilgan insonning qadami zamin uzra mustahkam turishi dushvorligini bildiradi”.<sup>23</sup>

Iste`dodli qalam sohibi bo`lmish Xayriddin Sulton ijodi o`zining dolzarbligi, makon va zamon tanlamasligi bilan o`quvchi va izlanuvchilarning e`tiborini jalb qilib kelmoqda. Yuqorida o`rganilgan ikkala dissertatsiyada ham adib ijodiga oid 90- yillargacha bo`lgan hikoyalari va “Saodat sohili” qissasi to`lig`icha tahlil qilinib o`rganilgan.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Shohsanam Sapoyeva “Xayriddin Sultonning hikoyanavislik mahorati” T -2006
2. Yulduz Karimova “O`zbek adabiyotida Bobur obrazi: tadrij va talqin” J – 2024



---

<sup>23</sup> Yulduz Karimova “O`zbek adabiyotida Bobur obrazi: tadrij va talqin”. Dissertatsiya. - Toshkent 2006. B-230

